

## Bug'doy Agrotsenozi Tuproq Qatlamlaridagi Sovutli Kanalarning Tarqalishi

*Batirova Iroda Maqsud qizi<sup>1</sup>*

**Kirish.** XIX asrda tabiatda moddalarning davriy aylanishi tirik organizmlar faoliyati bilan bog'liqligi to'g'risidagi ilmiy nazariya vujudga keladi. Tuproqshunoslik fanining asoschisi, rus olimi V.V. Dokuchayev tuproqni har xil omillar (iqlim, relef, o'simlik va hayvonlar) ning tuproq hosil qiluvchi jins bilan o'zaro ta'sirida vujudga kelgan muhit deb ta'riflaydi. Shunday qilib V.V. Dokuchayev fikricha tuproq maxsus tabiiy va tarixiy tarkib topgan jismdir. Chunki o'sha davrgacha uchta jins mineral, o'simlik va hayvonlar borligi to'g'risidagi K. Linneyning fikri hukm surar edi. Olimning ishlarida tuproq degan yangi metodologik nazariya ilgari surilgan [1]. Bu metodologiya hozir tizimli yondoshuv nomi bilan ko'pchilikka ma'lumdir. Lekin olim hayvonlarning tuproq hosil bo'lishidagi ahamiyatini dastlab nazarga olmagan edi. V. V. Dokuchayev yomg'ir chuvalchangining tuproq hosil bo'lishidagi ahamiyati cheklangan degan fikrni ilgari surgan. U tuproq hosil bo'lishida mikroorganizmlar faoliyatiga e'tiborni ko'proq jalb etgan [2].

**Material va metod.** Tadqiqot materiallari 2022 - 2023 yillar davomida Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani hududlari agrotsenozlari tuproq qatlamlaridan yig'ildi. Namunalarni agrotsenozlar va tabiiy ekotizimlar tuproqlarining 0-10 sm, 10-20 sm, 20-30 sm. qatlamlaridan 1 dm<sup>3</sup> miqdorda jami 1200 ta tuproq namunalari olindi. Tuproq namunalari daladan belgilangan nuqtalardan olinib, qopchalarga joylashtirildi va yorliq qog'oz bilan belgilab qo'yildi. Yorliq qog'ozga namuna olingan sana, joyning nomi, agrotsenozlar yoki tabiiy ekotizimlar nomi, tuproq qatlami va boshqa ma'lumotlar qayd etildi. Yuqorida ko'rsatilgan hududlardan sovutli kanalarning tur tarkibi va ekologiyasini o'rganish uchun namunalar olishda marshrut va mavsumiy dinamikasini o'rganish uchun statsionar uslublardan foydalanildi. Tuproq namunalaridan sovutli kanalarni ajratib olishda umumiy qabul qilingan "Berleze-Tulbgren apparati"dan foydalanildi [3].

**Natijalar.** Janubiy O'zbekistonning Sho'rchi, sarosiyo va termiz tumanlaridagi bug'doy agrotsenozlari tuproqlarining 30 sm. gacha bo'lgan qatlamlarida sovutli kana kanalar yil fasllariga nisbatan 1 m<sup>2</sup> da o'rtacha miqdori o'rganildi.

0 - 10 sm tuproq qatlamlarida o'rtacha 1 m<sup>2</sup> da Sho'rchi tumanidagi bug'doy dalalarida dekabr oyida 100, yanvar oyida esa 0 aprel oyida 400, may oyida esa 3100, iyul oyida 400 ta, oktyabrda 550 ekzempliar; Sarosiyo tumanidagi bug'doy dalalarida dekabr oyida 100, yanvar oyida 100, aprel oyida 400, may oyida esa 3200, iyul oyida 560 ta, oktyabrda 1000 ekzempliar; Termiz bug'doy dalalarida esa dekabr oyida 200, yanvar oyida 100, aprel oyida 600, may oyida esa 4200, iyul oyida 600 ta, oktyabrda 1400 ekzempliar uchrashi kuzatildi.

10-20 sm qatlamlarida 1 m<sup>2</sup> da o'rtacha Sho'rchi tumanidagi bug'doy dalalarida dekabr oyida 200, yanvar oyida 100, aprel oyida 820, may oyida esa 2600, iyul oyida 1400 ta, oktyabrda 1150 ekzempliar; Sarosiyo tumanidagi bug'doy dalalarida dekabr oyida 300, yanvar oyida 200, aprel oyida 1400, may oyida esa 2700, iyul oyida 1580 ta, oktyabrda 1500 ekzempliar; Termiz bug'doy dalalarida dekabr oyida 200, yanvar oyida esa 200, aprel oyida 2400, may oyida esa 3100, iyul oyida 2080 ta, oktyabrda 3700 ekzempliar uchrashi kuzatildi.

20 - 30 sm qatlamlarida 1 m<sup>2</sup> da o'rtacha Sho'rchi tumanidagi bug'doy dalalarida dekabr oyida 400, yanvar oyida 100, aprel oyida 220, may oyida esa 360, iyul oyida 2800 ta, oktyabrda 580 ekzempliar; Sarosiyo tumanidagi bug'doy dalalarida dekabr oyida 300, yanvar oyida 400, aprel oyida 800, may oyida esa 1560, iyul oyida 3700 ta, oktyabrda 1500 ekzempliar; Termiz bug'doy dalalarida dekabr oyida 300, yanvar oyida esa 400, aprel oyida 7000, may oyida esa 1900, iyul oyida 4100 ta, oktyabrda 2520 ekzempliar uchrashi kuzatildi (1-jadval).

<sup>1</sup> Milliy universitetining Zoologiya mutaxassisligi magistranti



**1-jadval. Surxandaryo viloyati bug'doy agrosenoz tuproq qatlamlaridagi sovutli kanalar mavsumiy dinamikasi**

Tuproq qatlamlari	Sho'rchi tumani			Sariosiyo tumani			Termiz tumani		
	0-10 sm	10-20 sm	20-30 sm	0-10 sm	10-20 sm	20-30 sm	0-10 sm	10-20 sm	20-30 sm
Dekabr	100	200	400	100	300	300	200	200	300
Yanvar	0	100	100	100	200	400	100	200	400
Aprel	400	820	220	400	1400	800	600	2400	7000
May	3100	2600	360	3200	2700	1560	4200	3100	1900
Iyul	400	1400	2800	560	1580	3700	600	2080	4100
Oktabr	550	1150	580	1000	1500	1500	1400	3700	2520
Jami:	4550	6270	4460	5360	7680	8260	7100	11680	16220

**Xulosa:** Janubiy O'zbekistonning bug'doy agrotsenozlari hamda tabiiy ekotizimlari tuproq qatlamlarida sovutli kanalar Oribatidae katta oilasining 31 ta oila va 42 avlodiga mansub 54 ta turi mavjud. Shundan 22 ta tur O'zbekiston faunasi uchun yangi tur hisoblanadi. Hududlarda Lohmanniidae (7 tur) va Brachychthoniidae (5 tur) oilalariga mansub turlari xilma-xilligi bilan ajralib turishi ularning tuproq yuza qatlamlarida tarqalgani bilan izohlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- Криволуцкий Д.А. Панцирные клещи. Морфология, развитие, филогения, экология, методы исследования, характеристика модельного вида *Nothrus palustris* C.L. Koch, 1839 / М.: Наука, 1995. -224 с.
- Кузиев Р.К. Сектименко В.Е. Почвы Узбекистана // Тошкент, 2009. – 351 с.
- Потапов М.Б., Кузнецова Н.А. Методы исследования сообществ микроартропод. М.: Товарищество научных изданий КМК, 2011. -196 с.
- Паньков А.Н., Рябинин Н.А., Голосова Л.Д. Каталог панцирных клещей Дальнего Востока России. Часть 1. Каталог панцирных клещей Камчатки, Сахалина и Курильских островов. Владивосток; Хабаровск: Дальнаука, 1997. -87 с.
- Рябинин Н.А., Паньков А.Н. Каталог панцирных клещей Дальнего Востока России. Часть II. Континентальная часть Дальнего Востока. Владивосток–Хабаровск: ДВО РАН, 2002. - 92 с.

